

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**TA’LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TILLARNI
O‘QITISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

2024-yil 17-may

**Сборник материалов международной научно-практической
конференции**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ
В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

17 мая 2024 года

Collection of materials of the international scientific and practical conference

**PROBLEMS AND PROSPECTS OF LANGUAGE TEACHING IN THE
CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION**

May 17, 2024

Guliston – 2024

6. Nazarova M. Translating Goethe's lyrics: "die schöne Nacht". *Достижения науки и образования*. 17 (39). 2018. – P. 78-79.

7. Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1996. 21-б.

SHARQ BILAN G'ARBNI BOG'LOVCHI VA TARIXCHI, YOZUVCHI, TARBIYACHI MUTAFAKKIR

*Tojiyev Xonimqul, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Guliston davlat universiteti;
Safaraliyeva Zilola, magistrant, Guliston davlat universiteti*

khusanova.z.98@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola Afg'on-Amerika yozuvchisi Mir Tamim Ansariyning hayot yo'li va ijodiy faoliyatini yoritishni ko'zda tutgan.

Kalit so'zlar: Afg'on, Amerika, "The Scribe" jamiyat gazetasi, "Osiyo" gazetasi, "Encrata" o'quv sayti, yuqumli e-mail, Ansar, Lashkargoh, "Qobulning Sharqi, Nyu Yorkning G'arbi", "Vayron bolgan taqdir", "Mening hayotim tarixi", "Afg'on qizi", "Osmonning qizi", "Kechagi kuning ixtirosi".

Kirish. Tamim Ansariy 1948- yilda Afg'onistonning Qobul shahrida tug'uldi. Uning otasi Afg'on, onasi Amerikalik bo'lib, garchand bollalik yillarini Afg'onistonda o'tkazgan bo'lsa ham, ijodiy faoliyati Amerika qo'shma shtatlarida boshlanadi. 16 yoshga kirganda Qo'shma shtatlarga ta'lim olish maqsadida ketadi va shu bo'yicha Afg'onistonga ikki marotaba, ona yurtini ko'rib ketish uchun kelib ketadi holos. Tamim 60-70-yillarni Arigon shtatining Portlen shahrida o'tkazdi. o'sha yerda madaniyat sohasidagi "The Scribe" nomli jamiyat gazetasi, haftalik tabloidda ishladi. Keyin u yerdan ketib, Osiyo fondiga qo'shildi va u yerda amerikadagi osiyolik o'qimishli, olim odamlar uchun mo'ljallangan "Osiyo" (ikki haftada bir chiqadigan gazeta) siyosiy gazetasida faoliyat olib bordi. U yerdan ketgach, kitob, darsliklar yozish va chop etish bilan shug'ullandi va bolalar uchun ilmiy-ommabop kitoblar yozdi. "Encarta" o'quv sayti uchun kalonka yozish unga topshirildi. San Fransiskodagi Afg'on yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qildi.

Shu zaylda 11-sentabrdan 12-sentabrga o'tar kechasi mashhur jahon savdo markazidagi ikkita osmono'par bino vayron bo'lgan kuni 900 ta so'zdan iborat bo'lgan e-mail yozdi va taxminan 20 ta amerikalik do'stlariga yubordi. Bu electron xat "yuqumli" bo'lib chiqdi va to'rt kunda uni millionlab odamlar o'qib tanishishdi. Keyingi xaftadan, Tamim Ansariyning kasb kori o'zgarib, u endi Afg'oniston haqidagi ma'ruzalar bilan chiqa boshladi, ma'ruzalarida asosan, Islom dini haqidagi eshitirishlarni olib bordi. Afg'oniston va Islom haqida esseylar, kitoblar yozdi.

"Biroq, meni yozuvchi sifatida nafaqat Afg'oniston va Islom, balki unda kengroq hududlardagi jihatlar qiziqtirar edi. Madaniyatlar kesishgan joylarda nimalar bo'layotgani haqida qiziq-qiziq materillarim bor edi".

"Mening ikki xotiram, bittasi o'zinning alohida hayotimni tadqiq qiladi. Mening Afg'oniston haqidagi tadqiqotlarim butun mamlakat darajasidagi savollarni o'rgandi. Islom tarixiga taalluqli masalalarga qiziqishim va shu sohani tadqiq qilishim, uni butun bir sivilizatsiya ko'lami miqyosida o'rganishimga sabab bo'ldi. Keyin men o'z o'ylarim, fikrlarimga cho'mdim, dunyo turfaxil, butun

dunyo istiqboli kelajakka to'la, ular yozilgan davr davomida bir-biri bilan to'qnashadilar, butun olam va men mana shu yagona global, cheksiz tarixni o'rganish bilan bandman. Bu tarixni men o'zining oxirgi kitobim "Kechagi kuning ixtirosi" nomli kitobimda hikoya qilaman" deydi yozuvchi.

Ansary Qobulda-Afg'oniston poytaxtida 16 yoshgacha unib o'sdi. Unga Tamim Ansariy deb nom qoyishgan. Bunday nom berilganining sababi, uning ajdodi Makkayu Madinadan kelgan va Afg'onistonni bosib olishda musulmonlar bilan birga bo'lgan va "Ansar" nomini olgan, 1200 yil avval Islom va Afg'oniston uchun e'tiborga sazovvor bo'lgan 12 funtlik marmar sag'anaga ko'milgan. Bugungi kunda ham, uning bobosini bobosi ushbu tepalikda rassomlar va shoirlar qabristonida turubdi. Ansariyning otasi Qobul universitetida tabiiy fanlar va adabiyotdan dars bergan, uning onasi esa ameikalik bo'lib, qizlar uchun maxsus qurilgan maktabda ingliz tilidan dars bergan.

Ansariyning qarindoshlari butun shahar bo'ylab sohibkorligi, to'g'rirog'i tokchiligi bilan mashhur qishloq Dekyahyoda yashashgan. Keyin ularning oilasi Afg'onistonning janubi-g'arbida, cholu biyobonni gullab yashnatishga mo'ljallangan, Amerika tomonidan moliyalashtirilgan "Lashkargoh" degan joydagi shtab-kvartiraga ko'chib O'tadi.

1964-yilda Ansariy Amerika o'rta maktabining stipendiyasini yutub oldi va Kolarada qoyali rokki (qoyali tog') maktabiga ko'chib kelishdi, 6 yil 'tib Red kollejini a'lo baholarga bitiradi, 60 yillarning kontrmadaniyati bilan serfingda qandey yashasa shunday hayot kechirdi, "The Portland Skribe" haftaligiga yozib turdi, kommunalarda yashadi, restoranlarda ishladi, tajribaba sifatida nomi chiqmagan fantastika yozdi va uning sarguzashtlarga ilinib qolgani ham shundan bo'lsa kerak.

1980 yilda Ansariy shimoliy Afrika va Turkiyaga Islomni o'rganish uchun sayohatga bordi, Islomshunoslikni o'rganishga tutildi. 11 sentabrdan so'ng u yana safarga chiqdi. Bu safar u Pokistondagi afinalik qochoqlar lagerini k va Qobulni borib ko'rishni maqsad qilgan edi. Yozuvchi o'zining "Qobulning Sharqi, Nyu Yorkning G'arbi" asarida Islom jamiyati haqida shunday deydi: "Islomda ko'rsatilgan jamiyat tuzumi boshqa jamiyat tuzumlaridan ustun turadi, chunki unda buyrakratiyaning hech qandey ko'rinishi yo'q. Unda hech qanday liderlar yoki davlatni boshqaruvchi hech qandey tashkilot mavjud emas, sababi, musulmon jamiyati o'zini ularsiz ham boshqara oladi, har bir inson har qandey boshqa inson hukmronligidan mutloqo ozod, chunki hamma insonlar yagona Ollohning qonuniga bo'ysunadi, undan boshqa hech narsa ularni boshqarmaydi". Bu asar 2002-yilda chop etilgan, yozuvchining hayoti haqida qisqacha ma'lumot beruvchi memuar hisoblanadi. Uning shuhrat keltirgan "Vayron bo'lgan taqdirlar" (Dunyo tarixi Islom ko'zi bilan) nomli asari 2009-yilda nashr etildi. U Farax Ahmadiy bilan hamkorlikda "Mening hayotim tarixi", "Afg'on qizi", "Osmonning qizi" kabi asarlar yozdi.

Mir Tamim Ansary afg'on-amerikalik yozuvchi va notiq. U bu ikki mamlakat tarixi to'g'risida kitoblar yozdi. Uning etnik mansubligi (otasi – Mir Amoniddin Ansariy afg'on, onasi-Tertti Mari Palm amerikalik) bugungi kunda ko'pchilikni qoyil qoldirdi.

Ansariy erkin yozuvchi. 1990-yildan buyon ta'lim masalalari bo'yicha maslahatchi. Unin ko'plab darsliklari chop etildi, uning maktubi g'ayrioddiy favqulotda tezlik bilan tarqaldi va unda bolalar uchun ilmiy adabiyotlar yozib pul topishga moyillik, rag'bat paydo bo'ldi. O'zining amerikadagi vatandoshlari daf'atan tushunib yetmoqchi bo'lgan dunyoning anglab olish qiyin bo'lgan qismini tushuntirib bermoqchi bo'ldi. U omma oldida nutqlar so'zladi, Islom va Musulmon tarixi haqida radio eshittirishlar olib bordi, esseylar yozdi. Kitoblar maqtovg'a sazovvor bo'lib butun dunyoga tarqaldi. Uning "Vayron bo'lgan taqdir" va "kechgagi kunning ixtirosi" kitoblari jahon tarixida yangi ma'lumotlar hikoya qilishi bilan mashxur bo'ldi.

Tamim Ansariy o'zining butun dunyoga tarqalgan elektron pochta orqali yuborgan xati bilan tanildi. U 11-sentabrdan keyin jahon ommaviy axborot vositalari orqali tosh asrida qolib ketgan Afg'onistonni bomba tashab, yer bilan tekislab tashlash bayonotiga qarshi chiqdi. Yozuvchi bugungi kunda ham bardam-baquvvat, ijodiy ish bilan band. Siz bilan biz ularning quyidagi kitoblarini o'qib, o'rganib, o'z bilimimizni oshirishga harakat qilishimiz lozim.

Adabiyotlar

1. West of Kabul, East of New York.
2. Destiny Disrupted: A history of the world through Islamic eyes.
3. The Widow's husband.
4. Games without rules; Often-Interrupted History of Afganistan.
5. Yesterday's Invention.
Road Trip; Becoming an American in the vapor trail of The Sixties.

НЕКОТОРЫЕ ПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКА В. С. ВЫСОЦКОГО

*Никаноров Сергей Анатольевич, кандидат филологических наук, доцент,
Шадринский государственный педагогический университет, Россия*
nikanorov-70@mail.ru

Аннотация. В статье раскрываются особенности поэтического языка В. Высоцкого, отраженные в стихотворении «Заповедник»; предпринята попытка установить их функциональную значимость.

Ключевые слова: качественно-характеризующие определения, эпитеты, поэтический язык.

Ранее нами уже была предпринята попытка анализа грамматического выражения эпитетов в творчестве В. С. Высоцкого [2]. В предлагаемой статье мы коснемся эпитета в стихотворных произведениях замечательного художника слова второй половины 20 века и рассмотрим особенности авторского поэтического языка, сопряженные с собственно эпитетом и представленные в одном из его стихотворных произведений.

Давно известно, что *эпитет* (греч. epitheton, буквально – *приложенное*) художественное определение, один из тропов [1, с. 478];